

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI MA`NAVY, AHLOQIY TARBIYALASHNI TASHKIL QILISH METODIKASI

To‘rayeva Durdona Abdug‘appor qizi

*Namangan shahar 12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi algebra fani o‘qituvchisi*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarni ma`naviy, ahloqiy tarbiyalashni tashkil qilish metodikasi to`g`risida ma`lumotlar bayon qilingan. Ota-ona bilan ma`naviy-ahloqiy tarbiyalashdagi hamkorliklarni ko`rsatib o`tilgan.*

### **Kalit so`zlar**

*Maktab, tarbiya, pedagogika, ahloqiy tarbiya, odob axloq, yoshlar, yoshlar tarbiyasi, metodikalar, ma`naviyat, dunyoqarash, hulq atvor, madaniyat, fazilatlar.*

### **Аннотация**

*В данной статье содержится информация о методике организации духовно-нравственного воспитания детей младшего школьного возраста. Показано сотрудничество с родителями в духовно-нравственном воспитании.*

### **Ключевые слова**

*Школа, образование, педагогика, нравственное воспитание, нравственность, молодежь, воспитание молодежи, методы, духовность, мировоззрение, поведение, культура, добродетели.*

### **Annotation**

This article contains information on the methodology of organizing spiritual and moral education of children of junior school age. Cooperation with parents in spiritual and moral education is shown.

### **Key words**

School, education, pedagogy, moral education, morals, youth, youth education, methods, spirituality, outlook, behavior, culture, virtues.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMTga bolalar tarbiyasi masalalari to‘g‘risida maxsus rezolyutsiya qabul qilishni taklif qildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev xalqaro konferensiya yakunlari bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining bolalar tarbiyasi masalalari umumbashariy taraqqiyotga erishishning muhim omili ekani to‘g‘risida maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif qildi.

“Ushbu hujjatda ota-onalarning bolalar sifatli ta’lim va tarbiya olishi, ma’naviy va jismoniy barkamolligini ta’minlashdagi rolini, ularning qobiliyat va salohiyatlarini to‘liq namoyon etish borasidagi mas’uliyatini yanada oshirish kabi masalalar o‘z ifodasini topishi lozim”, – dedi O‘zbekiston prezidenti. Shuningdek, takliflar qatorida kichik yoshdagi bolalar ta’limi bo‘yicha jahon tashkiloti bilan qo‘shma loyiha va tadqiqotlarni olib borish, tarbiyaning yangicha uslublarini va metodik qo‘llanmalarni tayyorlash uchun keng qamrovli dasturni ishlab chiqish va bu yo‘nalishda jahonda to‘plangan tajribalarni o‘zaro almashish maqsadida

tarbiyachilar xalqaro hamjamiyatini tashkil etish, kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta‘lim berish masalasini kiritish kabilar ham ilgari surildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta‘lim berish bo‘yicha butunjahon konferensiyasidagi nutqi.

Biz “inson qadri, uning huquq va manfaatlari – oliy qadriyat”, degan tamoyildan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz aholisi uchun munosib turmush sharoitini yaratishni Yangi O‘zbekiston siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilaganmiz.

Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e‘tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni jismoniy va ma‘naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish, ularning o‘qishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish orqali kelajakda yoshlarning o‘zligini to‘la namoyon etishiga mustahkam zamin yarat-yapmiz. Zero, bu kabi ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubha yo‘q. Shu bilan birga, bola shaxsiyatining asosi aynan maktabgacha ta‘lim yoshida shakllanishi, bu davrda uning intellektual va jismoniy kamoloti uchun poydevor yaratilishi hammamizga yaxshi ma‘lum. Hozirgi paytda yurtimizda 3 millionga yaqin maktabgacha yoshdagi bolalar bor. Hech shubhasiz, ular bizning eng bebaho boyligimiz, erkin va farovon hayotimiz, yorug‘ kelajagimiz bunyodkorlaridir.

Ma‘naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina istiqlol va mustaqillik uchun kurashda o‘zida irodaviy kuch va qudrat topa olishi mumkin. «Kim bo‘lishidan qat‘iy nazar, jamiyatning har bir a‘zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa bunday odamlarni yo‘ldan urush, har xil aqidalar ta‘siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi». Jamiyatimizdagi ijtimoiy munosabatlar, siyosiy mafkuraviy yo‘nalishlar tizimining o‘zgarishi tufayli milliy xarakter xususiyatlar ham ularga mos ravishda o‘zgarib boradi. Milliy xarakterning o‘zgaruvchanlik xususiyatidan kelib chiqqan holda zarur vazifalarni vujudga keltirish yo‘li bilan uni shakllantirishni uddalash muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “...ma‘naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odanning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir” Uzoq vaqtlar mobaynida inson ma‘naviy dunyoqarashi, ahloqiy vaziyatlarni shakllanishi va shaxsning ma‘naviy kamoloti etika va pedagogika sohasidagi izlanishlarning predmeti bo‘lib qolgan edi. O‘zbeklarda va umuman, Sharq mamlakatlarida ahloqiy madaniyat, ma‘naviyat va ruhiyat masalalariga e‘tibor o‘ziga xos qadriyatlar bo‘lib kelganligi sababli ushbu muammolar bir qator faylasuflar, pedagoglar, ahloqshunoslar tomonidan o‘rganib kelingan. O‘zbekistonlik psixologlardan M.G.Davletshin, E.G.G‘oziev, G‘.B.Shoumarov, V.A.Tokareva, V.M.Karimova va ularning izdoshlari shaxsning ichki ruhiyatini xulq atvor va madaniy shartsharoitlar, xususan, ta‘lim muassasalari, oila va tengqurlar jamoasi ta‘sirida shakllanishi muammolariga qisman e‘tiborni qaratib, ushbu sohadagi ilmiy muammolarni ochib berganlar. Ayniqsa, V.A.Tokareva birinchi bo‘lib, talaba yoshlar shaxsining xulq atvor taraqqiyotini maxsus psixologik metodlar (birinchi navbatda longityud metodi) yordamida o‘rganib, xulq atvor tasavvurlar va ular zaminida turgan ahloqiy xulq - atvor hamda ularga bo‘lgan ehtiyojlarni monografik tarzda jiddiy ilmiy izlanishlarning predmetiga aylantirgan. Lekin ilk o‘spirinlik davrida hulq atvor tushunchalar va tasavvurlarning shakllanishiga sabab

bo‘luvchi ijtimoiy omillar avvalo o‘zbek xalqining milliy an‘analari va udumlari, qolaversa, maxsus shart-sharoitlar ta‘lim-tarbiya jarayonlarning ushbu jarayonga ta‘siri maxsus tadqiqotlar ob‘ekti va predmetiga aylantirilmagan. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ta‘lim va tarbiyaning dolzarb roli ortib boradi. Zero, ta‘lim O‘zbekiston xalqi ma‘naviyatidagi yaratuvchanlik faolligini keltiruvchi uzluksiz jarayondir. O‘zib kelayotgan avlod vakillarining barcha qulay imkoniyatlari unda namoyon bo‘ladi, kasbiy tayyorgarligi, mahorati uzluksiz ravishda takomillashadi, ajdodlarning bebaho tajribasi ularga meros sifatida uzatiladi. Yoshlar, ularning iqtidorlik va bilim olishga layoqati, uquvchanligi ta‘lim jarayonida takomillashadi va hulq atvor qadriyatlar tushunila boshlanadi. Har bir inson o‘zicha takrorlanmasligi tufayli jamiyat har bir shaxsning xarakteri va o‘ziga xosligini qo‘llab - quvvatlaydi, uning madaniyatni yanada yuksak darajasiga ko‘tarishga ta‘sir etuvchi yangi fazilatlar va hislatlarini umumlashtiradi. Hozirgi davrda yoshlar tarbiyasi va ular hulq atvori ijobiy tarzda shakllantirishning dolzarbligidan kelib chiqib, biz tadqiqotning asosiga kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning shaxs hulq atvor fazilatlarining shakllanishiga sabab bo‘luvchi ijtimoiy psixologik omillar, pedagogik shart-sharoitlarni belgilash va hulq atvor tasavvurlar, tushunchalarning bu borada psixologik mexanizm sifatida o‘rni borligi g‘oyasini oldik. Bolaga yoshligidan tarbiyani ma‘suliyat bilan berish borasida Abdulla Avloniy shunday fikrlarni bayon qiladi: Avloniyning fikricha, axloq – bu hulqlar majmuidir. Hulq esa, kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma‘lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishida yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar, ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Avloniyning ta‘kidlashicha, axloq tarbiyasi xususiy ish emas. Bu tarbiya ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilish, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Bolalarni ma‘naviy-ahloqiy jihatlarini tarbiyalashda o‘zimizning milliy ananalarimiz, urf-odatlarimiz, ota-bobolarimizdan qolgan milliy ananalarimiz ruhida tarbiyalash maqsadga muvofiq. Bu bizni o‘zbek millatimizni tarixini kelajak avlodga ya‘ni yosh avlodning ongiga singdirishimiz maqsadga muvofiq boladi. O‘zimizning milliy urf-odatlarimiz ruhida ma‘naviy tarbiyalash, ma‘naviyatni va odob-axloqni eng birinchi bo‘lib o‘zimizning, o‘zbek halqining buyuk bobokalonlarini jaditchilarni tanishtirib o‘tishimiz darkor. Ularga hos farand bo‘lish, ajdod bo‘lish, ularni qoldirgan meroslarini chuqur o‘rganish va shu ma‘naviy meroslarni davom ettirish va huddi o‘sha bobokalonlarimizdek yetuk inson bo‘lishni yosh maktab o‘quvchilariga sinngdirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yosh maktab o‘quvchilarini to‘g‘rirog‘i barcha yoshlarni maktabgacha bolgan davrlaridanoq yetuk inson bo‘lishini kelajakda o‘z kasbini egallashini va shu egallagan kasbining eng zo‘r vakili bo‘lishini taminlash ota-onalarning va o‘qituvchilarning bolalar uchun qiladigan eng muhim ishlaridan biri hisoblanadi. Yosh maktab o‘quvchilarini kelajakda yetuk shaxs bo‘lib yetishishlari uchun buyuk ajdodlarimizning qo‘llanmalaridan, yozgan asarlaridan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yosh avlodning tarbiyasida nafaqat o‘zbek mutafakkirlar balki butun dunyo mutafakkir olimlari va yozuvchilari asarlaridan foydalanish foydadan holi bo‘lmaydi.

“Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o‘g‘rilar, giyohvandlar va nashavandlar. Kecha tarbiyalariga e‘tibor berilmagan bolalardir.” –

degan jumlar ham Abdullo Avloniy qalamiga mansubdir. Buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o‘zining “Insoniy ishlarni tuzatish haqida umumiy maslahatlar” asarida tarbiya tabiatga uyg‘un bo‘lishi, tarbiyada “bolani hamma narsaga o‘rgatish”, tabiat ko‘rsatmalariga asoslanish, bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish zarurligini aytadi. Uning fikricha, tabiat hamma narsani eng umumiy narsadan boshlaydi va xususiy narsa bilan tugatadi. Oilada bolalar tarbiyasining pedagogik usullari borasida A.K.Munavvarov, O.To‘raev, M.O.Ochilov, N.Nishonov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini keltirish mumkin. Bolaning ahloqiy rivojlanishida oila va undagi urf-odatlarining bola shaxsiga ta‘siri ilmiy jihatdan to‘la, yorqin ifodalab berilgan ilmiy tadqiqotlar sarasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. S.Nurmatov va G.Baubekova xalqning mehnat an‘analarini o‘rganib, ulardan tarbiyada hamda yuqori sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishda foydalanish usullarini ishlab chiqdilar. Bular asosiga qurilgan maktabdagi ta‘lim-tarbiya mazmuni o‘quvchilarning kasbni egallashlarida, sinfdan tashqari ishlarni yo‘lga qo‘yishda istiqbolli (progressiv) mehnat an‘analaridan foydalanishni ko‘rsatadi. O‘zbek xalqining tarbiya bilan bog‘liq an‘analari I.Sherboev tomonidan o‘rganilgan va ular xalq tarbiyasida pedagogik tizim sifatida baholangan. Xalq pedagogikasi mazmuni og‘zaki ijodiyotda, buyuk allomalar merosida ifodalanganligi ta‘kidlanib, ulardan aqliy, ahloqiy, jismoniy tarbiyada foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, farzand tarbiyalashdan avval o‘zimizni tarbiyalashimiz zarur. Negaki farzandlarimiz bu bizning oynadagi aksimizdir. Bola tarbiyasida ota - onaning ma‘suliyati , mahorati , ziyakligi , obro‘-e‘tibori muhimdir. Shuningdek bolalarda chiroyli xulq-atvor ko‘nikmasini , malakalarini , tarbiyalashning o‘ziga xos ko‘pgina usul va vositalari borki , ota -ona kundalik hayotda ularni yaxshi bilishi , bevosita har qaysisidan o‘z o‘rnida , me‘yorida , maqsadga muvofiq foydalanishi g‘oyat zarur. Bular jumlasiga ibrat - na‘muna usuli , yaxshi xulq atvorga o‘rgatish, yaxshilikka odatlantirish, o‘rni kelganda nasihat qilish, qat‘iy tanbeh berish , bola bilan vaqtincha gaplashmaslik,ularga nisbatan munosabatni o‘zgartirish, ishontirish, jamoatchilikning ta‘siri , rag‘batlantirishva qoralash kabilar kiradi.Har bir ota -ona bola tarbiyasiningijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishiga e‘tibor berib , tarbiya borasidagi diniy , nazariy hamda amaliy qonun -qoidalarni o‘zlashtirib , unga amal qilsa , ayni muddao bo‘ladi. Negaki , oilada bola tarbiyasi g‘oyat nozikva murakkab masala bo‘lib, bu ota -onadan katta odob bilimni , katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Mirziyoyev Sh .M. O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., O‘zbekiston ,, 2021
- 2.Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch . T. ,,Ma‘naviyat ,, 2008.
- 3.Sodiqova Sh. Maktabgacha Pedagogika. Toshkent, 2003.
- 4.Inomova M. Oilada bolalarnima‘naviy -axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. -T. Fan, 1995.
- 5.“Maktabgacha ta‘lim- tarbiya to‘g‘risida“gi Qonun,-T.;O‘zbekiston. 2020 y.
- 6.Ilkl va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. -

T.:2018 y. 9.Abdurahimova D. Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish: Ped. fan. dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B.6.

8.Djuraev R., Torejonova R. Bolalarning axloqiy tarbiyasida xalq udumlari va an‘a‘nalaridan foydalanish // Xalq ta’limi, 2009. – №2.1999. –103 b.